



## **O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI NAVOIY VILOYATI HOKIMINING QARORI**

2025-yil 23-may

120-5-0-Q/25

Navoiy viloyati hokimligi

### **O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 8-maydagi “O‘zgalar parvarishiga muhtoj shaxslarga ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish ko‘lamini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-171-sonli qarori ijrosini ta’minlash haqida**

“Kambag‘allikdan farovonlik sari” dasturi doirasida ijtimoiy xizmat ko‘rsatish qamrovi va turlarini kengaytirish, o‘zgalar parvarishiga muhtoj shaxslarni ijtimoiy xizmatlar bilan qamrab olish ko‘lamini yanada oshirish maqsadida

### **QAROR QILAMAN:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 8-maydagi “O‘zgalar parvarishiga muhtoj shaxslarga ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish ko‘lamini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-171-sonli qarori ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur qarori bilan quyidagilar:

2025-yil 1-iyundan boshlab o‘zgalar parvarishiga muhtoj voyaga yetgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan “Faol hayotga qadam” dasturi joriy etilganligi;

O‘zgalar parvarishiga muhtoj voyaga yetgan shaxslarga ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish tizimini takomillashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturi tasdiqlanganligi inobatga olinsin.

3. Viloyat hokimining o‘rinbosari (J. Xodjayev), viloyat sog‘liqni saqlash boshqarmasi (N. Safojev), Ijtimoiy himoya milliy agentligi viloyat boshqarmasi (Q. Rajabov) tuman (shahar) hokimliklari bilan birgalikda joylardagi tibbiyot birlashmalari va “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlari tomonidan vasiylik yoki homiylik belgilangan voyaga yetgan shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga

vasiy yoki homiylik tomonidan rioya etilishi holatini doimiy o'rganib borilishini nazoratga oling.

4. Ijtimoiy himoya milliy agentligi viloyat boshqarmasi (Q. Rajabov), viloyat sog'liqni saqlash boshqarmasi (N. Safoyev), kambag'allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi (L. Xayrullayev) tuman (shahar) hokimliklari:

O'zgaralar parvarishiga muhtoj voyaga yetgan shaxslarga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish tizimini takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturida nazarda tutilgan chora-tadbirlarning viloyatdagi ijrosini o'z vaqtida va sifatli amalga oshirilishini;

"Faol hayotga qadam" dasturi doirasida yo'lga qo'yiladigan ijtimoiy xizmatlar "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazlari va tizim tashkilotlari bilan bir qatorda yakka tartibdagi tadbirkorlar, yuridik shaxslar yoki o'zini o'zi band qilgan shaxslar tomonidan hamkorlikda amalga oshirilishini ta'minlasin.

5. Viloyat hokimligi axborot xizmati (Raubayeva), viloyat teleradiokompaniyasi (Muqimov)ga ushbu qarorning mazmun-mohiyati va ahamiyatini ommaviy axborot vositalarida keng yoritish tavsiya etilsin.

6. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish viloyat hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari J. Xodjayev zimmasiga yuklansin.

**Viloyat hokimi**



**N.Tursunov**